



**MUSIQALI PARCHALARDA ARIYA ISHLASH JARAYONIDAGI  
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Akbaraliyev Shoxrux Raxmat o'g'li**

*Andijon davlat universiteti*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 02.06.2024**  
**Qayta qabul : 10.06.2024**  
**Saytda mavjud : 15.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**Sh.R.Akbaraliyev**

**Muallif bilan aloqa**



[akbaraliyevshohrux@gmail.com](mailto:akbaraliyevshohrux@gmail.com)

© **Sh.R.Akbaraliyev**  
**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:  
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**  
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya:** Maqola Musiqali teatr spektakllarida ariya ishlash jarayonida duch keladigan muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf qilish yo'llari, aktyorning ijro imkoniyatlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** teatr, aktyor, musiqa, drama, ariya, duet, trio, pesa, libretto.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы и недостатки спектаклей музыкального театра в процессе работы с ариями, а также способы их преодоления, исполнительские возможности актера.

**Ключевые слова:** театр, актер, музыка, драма, ария, дуэт, трио, спектакль, либретто.

**Annotation:** The article discusses the problems and disadvantages of musical theater performances in the process of working with arias, as well as ways to overcome them, the performing capabilities of the actor.

**Key words:** theater, actor, music, drama, aria, duet, trio, performance, libretto.

Teatrning tug'ilishi yoki kelib chiqishi yer sharining barcha qit'alarida asosan bir xil ya'ni ibtidoiy davrlarda marosimiy xatto xarakterlarga bog'liq holda kechgan, lekin har bir makonda teatrning taraqqiyot yo'llari turlicha bo'lib o'tgan.

Teatr san'ati boshqa san'atlardan farqlanuvchi o'zigagina xos xususiyatlarga ega. Bu eng avvalo teatrning sintetik xususiyatidir. Teatr asarlari barcha san'atlarni o'z ichiga osonlik bilan qamraydi, jumladan, adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, vokal, xoreografiya va boshqa san'atlar. Shuningdek O'zbek xalqi teatr madaniyatining deyarli barcha turlarini egallagan. Lekin xalqimiz o'z xarakter xususiyati va milliy an'alariga tayangan holda professional teatrning yangi o'ziga xos turi – musiqali dramani yaratgan. Musiqali dramaning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida matbuot nashrlarida e'lon qilingan san'atga doir bir qancha maqolalarda "cholg'uli fojia", "cholg'uli kulgi", "opera", "milliy opera" deya berilgan iboralarga duch kelamiz. Bugungi kun ta'biri bilan aytganda yuqoridagi atamalardan ayon bo'ladiki, musiqali dramaning yaxlit ko'rinishi bir necha bosqichlarda shakllangan. "Nihoyat yigirmanchi yillarning so'ngida "musiqali drama" termini tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Xuddi mana shu davrda Sotti Xusayn bu termini o'zining "O'zbek teatri" risolasida qo'lladi". [3.B.6]

XX asrning 20-yillarida milliy, o'ziga xos, o'zbek xalq og'zaki ijodi hamda tomoshabinining didiga mos san'at yaratish yo'lida izlanishlar olib borildi. Albatta, bu davrda bizda na musiqa yozadigan, na notani taniydigan kompozitorlar, na orkestr mavjud edi. Natijada yana xalq ma'naviy boyligi - uning musiqasi, ijodiyotiga murojaat etildi. Ularga

ishlov bergan bo'lib, xalq sevib eshitadigan ohanglar, musiqa navolari spektakllarda qo'llana boshlandi.

O'zbek musiqali dramasi o'ziga xos xarakterga ega. O'zbek musiqali drama tomonlari nimada? Fikrimizcha eng muhim o'ziga xoslik o'zbek musiqali dramasi asosida libretto emas to'laqonli pyesa yotishidir. O'zbek musiqali drama teatrida dramaturgiya xam, musiqa xam teng huquqli asosga ega. Yana buning ustiga o'zbek musiqali teatr syujeti, musiqiy jixatlari bilan aloxida ajralib turadi. "Farxod va Shirin", "Layli va Majnun", "Toxir va Zuxra", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq G'arib va Shoxsanam", "Gul va Navro'z" va boshqa sahna asarlari fikrimizning dalilidir. Lekin bugun o'zbek musiqali drama teatrlarining a'riyalarini ijro etishda bir qator muammolarga duch kelmoqdamiz.

Birinchi navbatta musiqali rejissor asarga rol tanlayotganida ko'proq aktyorning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan xolda rol taqsimlasa maqsadga muvofiq bo'lardi. Nega deganda musiqali asarlarda a'riyalarga katta e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda aktyordan xam juda katta mahorat talab etiladi, chunki aktyor sahnada o'z rolini ijro etish jarayonida, o'z rolidagi xolatida a'riya tug'ilish jarayonini ko'rsatish va orkestrga reprikani aytib o'tishi xamda a'riyani ijro etib yana o'sha o'z roli xolatiga qaytish mahoratlari talab etiladi. Bu xolatlarni bajarish aktyorga xam rejissorga xam bog'liq. Agar rejissor shu xolatlarni aktyorga tushintirib o'tmasa, aktyor xam o'z rolini tushinib ijro etmasa, spektakl tomoshabin uchun tushinarsiz bo'lib

qolishligi xam mumkin. Teatr spektakllarida yana shunday xolatlar kuzatilmoqdaki, hozirgi ba'zi – bir asarlarda, o'sha asarning xolatidan kelib chiqmagan xolatda a'riya, duet yoki treolarni ijro etish xolatlari kuzatilmoqda, bu esa o'sha a'riya yoki duetni spektakl bilat yaxlit bir xolatga olib kelmaslik xolatlarini tug'dirmoqda. Buni bartaraf etish yo'llari, albatta, musiqali rejissordir. Rejissor birinchi galda musiqali teatr aktyorini drama aktyoridan farqi nimada ekanligini tushintirishi lozim. Xo'sh, drama teatr aktyorini musiqali teatr aktyoridan farqi nimada? Dramatik aktyorni spektaklning tempo-ritmi boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib o'z obrazini yaratadi. Dramatik aktyorda so'z san'ati muhim ahamiyatga ega. Musiqali teatrda musiqa spektaklga jon bag'ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo'shiqlar orqali bir-biri bilan bog'lanadi. So'zdan asar dunyoga keladi, so'zdan qo'shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztiroblari kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo'lganda, so'z bilan ifodalab bo'lmas holat - qo'shiq va kuy orqali tomoshabinga yetkazib beriladi.

Musiqali aktyorlik maktabini yana bir xususiyati, ya'ni musiqali aktyorni, drama aktyorlaridan farqi, musiqali spektakl davomida parda ochilishidan boshlab asarning tempo-ritmi, aktyorlarning hatti-harakati, partnyorlarning bir-biriga munosabatlari, sahnadan sahnaga oyish jarayonlari va parda yopilishigacha bolgan jarayoning hammasi taktma takt belgilab olinadi va spektaklni boshdan ohirigacha dirijor boshqaradi. Misol uchun aytaylik, dramatik asarda aktyor bajaradigan ishni yani oz obrazining ichki holatini, oz qahramonning monologini biror bir musiqa ostida, fikr tugilganda, xohlagan taktida ijro

qilsa. Musiqali teatr aktyori mana shunday holatlarni 6 yoki 8 taktda bajarishi lozim va barchasi olchangan boladi. Shunda xam aktyorlik elementlarini to'laqonli bajargan va professional xolda talab etiladi. Bu aktyorlik mahorati elementlarini o'rganishda musiqali teatr aktyoridan koproq musiqiy savodxonlik talab etiladi. Shu bilan bir qatorda barcha fanlar yani sahna nutqi, vokal, raqs, sahna jangi, plastika va boshqa fanlar yordam beradi va barchasi aktyorlik maxorati uchun xizmat qiladi. Ko'ryapmizki barcha fanlar bizga aktyorlik maxoratini egallashimizga ko'maklashayapti, demak, biz barcha fanlarni barobar va to'laqonli o'zlashtirishimiz lozim. Musiqali teatr rejissori asardan kelib chiqib mana shu yerda so'z tugaydi va buni davomi qo'shiq yoki a'riya bo'lishi kerak degan xolatlariga olib kelishi lozim, qolaversa kompozitor, dramaturg, xormestir xammalari bir nafasga sindirilib, bir yoqadan bosh chiqarib, bir jamoa bo'lib ish olib borishlari kerak. Ana o'shandagina ko'zlagan maqsadlariga erishadilar.

“Musiqali teatr aktyori qahramon nutqi orqali dardini ochadi, dardning avj pardalarida kuylash orqali yaxlit holatni sahnada yarata oladi. U sahnada obraz yaratishga kirishar ekan, o'z qahramonining bosh maqsadini va yetakchi xatti – harakatini belgilab, shu asosda roldagi so'z va musiqaviy qismlarning o'rni va ahamiyatini aniqlab oladi”. [74.b]

Biz bilamizki ilgarilari musiqali teatr aktyorlariga aktyorlik mahoratini to'laqonli egallashi shart emas, aktyor sahnada rol ijro etayotganida rol xolatida

turishi to'laqonli talab etilmagan, asosan ovoz imkoniyatiga urg'u berilgan. Bugungi kunda esa buni to'laqonli aksi, chunki musiqali teatr aktyori rol ijro etayotganida to'laqonli rol xolatida turishi va o'sha xolatdan a'riya tug'ilishi, a'riyani musiqali teatr aktyori xar qanday emotsional xolatda, xox yig'i bilan xox quvonch bilan ijro etishi davomida, o'z a'riyasini tomoshabinga yetarli darajada kuylab berishi lozim. Bu esa aktyordan juda katta professionallikni va juda katta mehnatni talab etadi. Musiqali teatr aktyorligining o'ziga xosligi va murakkabligi xam mana shunda. Buning uchun albatta, musiqali teatr aktyori musiqiy savodxonlikka ega bo'lishi hamda vokal-texnik ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

“Vokal-texnik ko'nikmalarni shakllantirish – o'qituvchining asosiy vasifasidir. Sababi ovozini boshqara olmaydigan xonanda kompozitor asarlaridagi g'oyani yoritib bera olmaydi. Shu bilan birga chiroyli professional ovozga ega bo'lgan xonanda ifoda, dramatic xissiyotlarsiz ijro bilan badiiy maqsadga erisha olmasligi va tinglovchilarni o'ziga jalb qila olmasligi aniq”. [1.1,4-b] – deb yozadi G.Muhammedova.

Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi - deb yozadi G.Muhammedova.

Birinchi galda ijro etish apparatini qurish, ya'ni xonandaning professional ovozini hosil qilish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Bu ikki masala bir vaqtda bir-biriga bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday, hattoki eng soda ko'nikmani ham elementar ijro vazifasi bilan boshlash zarur. “Avval ovozni rivojlantirish, ana shundan so'ng ijro mahoratini egallash kerak” deb o'ylagan

xonanda katta hatoga yo'l qo'yadi. Busiz aktyor-xonandani tarbiyalash mumkin emas. Shu tufayli bu ikki masalaga eng birinchi qadamdan boshlab e'tibor berish zarur. Ijro etilayotgan asar oson bo'lmasa ham, o'quvchiga texnik vazifalarni berish bilan birga, albatta uning oldiga ijrochilik maqsadlarini qo'yish lozim. Albatta, dastlabki mashqlarda ham o'quvchi, ham o'qituvchining e'tibori ko'proq vokal-texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi, keyinchalik esa talabning ijrochilik, ifodalilik aktyorlik sifatlarini tarbiyalash muammolari birinchi o'ringa o'tadi”. [1.1,4-5-b]

Professional yozilgan musiqali asarlarimiz juda ham ko'p, ularni mohirlik bilan to'laqonli ijro mahoratida ham, ovoz imkoniyatida ham obraz yaratgan buyuk aktyorlarimiz talaygina. K.Yashin asari, T.Jalilov misuqasi bilan yaratilgan “Nurxon” musiqali dramasini olaylik. Bu asar qahramonlarini sahnada gavdalantirgan aktyor va aktrisaralarimiz biz yuqorida taktlagan talablarga to'laqonli javob berib, kelajak avlodga namuna bo'lib qoldilar. Birgina “Nurxon” asarining ikkinchi pardadagi Xoji va Kimyo sahnasini olib qaraylik. Bu sahnada Nurxonning onasi Kimyoning eng mashhur ariyalaridan biri “To'rt devor” ariyasi bor. Avvalo, bu ariya, ayollarning “Metso soprano” ovozigaga moslashgan bo'lib, ayollarning “Metso soprano” ovozi kichik oktava Iya – ikkinchi oktava Iya gacha xisoblanadi.

Ariyaning o'lchovi 4/4 o'lchovida bo'lib, “Andante” tempida yozilgan. Andante (Italiyancha andante, andare – barmoq, yurmoq) ma'nolarini anglatada.

O'rtacha tezlikda bo'lgan sur'at ko'rsatkichi. Shoshmasdan, osoyishta ijro etiladigan sur'at.

Bu asarda "daromad" va "o'rta avj" bo'lib, buni kuylagan aktyor – xonanda dramatik jihatdan ham kuchli bo'lishi zarur. Sababiki, Nurxonning otasi juda qaxri-qattiq, zolim, qamchisidan qon tomadigan inson obrazi qiyofasida yaratilgan. Uning qiynoqlariga bardosh berib kelayotgan Kimyo ohirgi daqiqalarda chiday olmaydi. Dod, faryod bilan ushbu ariyani kuylaydi. Bu ariyani juda katta mahorat bilan kuylagan "O'zbekiston xalq artisti" Lutfixonim Sarimsoqova bo'ladilar.

Hoji – (zaharhanda bilan). Yaqinroq keling, aylanay. Qizingizga hozir bildira ko'rmang. Indinga to'y qilib qo'ydim. Xa, harakatingizni qiling, oyim, tuzukmi.

Kimyo – A? To'y? Kimga?

Hoji – So'rab nima qilasiz! (tugunni tashlab) Mana, kiyim-kechakni tezdin tikting. Men qizimni yomon odamga berarmidim...

Kimyo - Kimga axir?

Hoji – To'raxo'ja Sarkorga.

Kimyo – Voy sho'rim, o'shanga qiz beramizmi?!

Hoji – G'ing deya ko'rmang! Men javob berib yubordim.

Shu o'rinda misol qilib olishimiz mumkinki: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori N.Qobilning "Oriyat" musiqali dramasini olaylik. Bu asar I.Shomurodovning "Odamxo'r" romani asosida yaratilgan bo'lib, musiqalarini O'zbekiston Respublikasi San'at arbobi B.Lutfillayev bastalagan. Xormestir Olimjon Komiljonov, dirijyor Akmal To'rayevlar bir zamonda bir vaqtda ijodiy hamkorlikda ish olib borishgan. Asar ustida ish olib borish natijasida ko'plab ijodiy jarayonlarning guvohi bo'lamiz. Asar

mazmun mohiyatidan kelib chiqib yaratilgan ariyalar balant pardalarda yozilgan bo'lib buni kuylash uchun aktyordan juda katta ovoz maxoratiga ega bo'lishni talab etadi. Birgina asar qaxramoni Yodgor ariyalarini olaylik, bu ariyalar har biri tenor ovoz uchun moslashtirilgan. Repititsya jarayonida aktyor ariyani avjini olishga qiynaladi shunda bastakor ariya pardasini tushirishni taklif qiladi, asar rejissyori N.Qobilov esa bunga ko'nmay "axir aktyor ham nimagadir intilib harakat qilishi o'z ustida ishlashi lozim, shundagina aktyorni qirralari ochiladi va biz o'ylagan natijaga erishamiz" degan fikrlarni bildiradi. Xormeystir ariya xorlari ustida masulyat bilan hamfikir bo'lib ish olib boradi. Dirijyor esa orkestirovka jarayonlarini diqqat bilan kuzatib orkestirda spektakl muhitini yaratishga urinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ko'ryapmizki o'zaro ijodiy hamkorlik va har bir ijodkor o'z ishiga mas'ulyat bilan yondoshishi katta natijalarga olib kelib, yana bir o'zbek musiqali asari dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Afsuski oxirgi paytlarda bunday ijodiy hamkorliklar juda kam uchraydi. Agar shu tizim yo'lga qo'yilsa o'ylaymanki bundanda yuksak natijalarga erishamiz.

Musiqali teatr janri xaqiqiy o'zbek teatr janri xisoblanib, u yevropadan kirib kelgan janrlar izidan bormay balki, o'zligimizni, milliy kuylarimiz, dostonlarimiz, xalq o'g'zaki ijodi, milliy maqomlarimizga tayanib dunyoga kelgan. Bu janrni egallashda drama aktyori singari faqatgina ko'rinishga e'tibor qaratilmay balki, aktyotning ovoz imkoniyati ham

muhim o'rinni egallaydi. San'at oliygohlariga kirishda test sinovlaridan o'tish kerak bo'lgan davrlarda talabalar orasida ovoz imkoniyatiga ega bo'lmagan, shu sohaga to'laqonli javob bera olmaydigan soha vakillari uchrab turishi yolg'on emas edi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 3-avgust sanasida ziyolilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarida bu narsaga chek qo'yganliklari va shunga asosan "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risi"dagi 2017-yilning 16-noyabr PQ-3389-son qaroriga ko'ra ish ko'rilganligi taqsimga sazovor. Mana endi har sohaning o'z egalari yetib keldi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

"Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari"[2] tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan

iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturining beshinchi yo'nalishi aynan, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganligi, davlatimiz tomonidan har bir sohaga e'tibor bilan yondashib kelyotganligini anglatadi.

San'atni sevuvchi uni hurmat qilib ardoqlovchi xalqimiz bor ekan san'at o'lmaydi. San'atning qaysi yo'nalishi bo'lmasin san'at sevar xalqimiz sevib tinglaydi. Chunki har qaysi san'at turi xalq tilidan, xalq orasidan yozib olingan. Shu boisdan ijro qilinayotgan asarlar hamisha "xalqniki" deb tan olingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
2. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" T: 2021y
3. Qodirov M. "Sexr va mexr" Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, 3,6-b.
4. Sayfullayev B, Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati - Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti 2012.
5. Teatr jurnali 2020. 2 son.
6. Lex.uz sayti.